

## O`ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FAVQULOTDA HOLATLAR VA KELAJAGIMIZ YOSHLARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALSH ENG OLIY MAQSADIMIZ

**Iskandar Kajanov Kenes o`g`li**

harbiy - texnik xodim

kajanov214@gmail.com

### ANNOTASIYA

Mamlakatimizda hayot muhofazasi hamda yoshlarni harbiy – texnik mutaxassisliklari bo`yicha tayyorlash. Ma`nan va aqlan yetuk , jismonan sog`lom shaxslarni kamol toptirish bo`yicha juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Ayni haqiqat , ona -Vatanga sadoqat va milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash , komil inson bo`lib yetishida navqiron avlodning qalbida buyuk ajdodlarimizga munosib bo`lishdek yuksak tuyg`uni shakllantirishimiz zarur. Harbiylar har qanday favqulotda holatlarda tayyor turishi va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbilashda o`z kasbiga sadoqat ila xizmat qiladilar.

**Kalit so`zlar:** Favqulotda holatlar , hayot muhofazasi , Vatanparvarlik , harbiy , yoshlar , ekologiya , ob`ekt , suv havza qirg`oqlari va ochiq joylardagi « SOS» signali.

**Kirish :** Vatanimiz taqdiri , tinch va farovon hayot uchun yuksak ma`naviyat tuyg`usini shakllantirish lozim. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti **Sh.M.Mirziyoyev** ta`kidlaganidek ; “ Ma`naviyat – eng kuchli va qudratli quroldir” . O`zbekiston – ma`rifat diyori , o`zbek yoshlariga ezgulik yarashadi , yuksalish va buyuk - buyuk ishlar qilish yarashadi . Yoshlar o`z - o`zidan komil inson bo`lib shakllanmaydi uni qadama-qadam ma`naviyat – ma`rifatini shakllantirib jamiyatga kerakli inson qilib chiqaramiz. Yuksak ma`naviyatli inson ikki dunyo saodatiga erishadi.

R.Yu.Qurbonov “ Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy g`oyaning o`rni” , E.T.Kalkanov “ Vatanparvarlik shakllanishi va amal qilishning bog`liq qonuniyatlari” kitobi hamda risolalarida asosiy e`tabor vatanparvarlikning mazmun – mohiyatiga hozirgi kunda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari oliy maqsad bo`lib kelmoqda. O`zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti **I.A.Karimov** aytganlaridek ; “ Bu yorug` olamda eng buyuk jasorat nima deganda eng buyuk jasorat – bu ma`naviy jasoratdir ” . Vatanimiz kelajagi xalqimiz ertangi kuni , mamlakatimizning jahon ichidagi obro` - e`tibori , avalombor , farzandlarimiz unib o`sib qanday inson bo`lib hayotga kirib borishiga bog`liqdir.

**Ish faoliyat va natijalar:** O`zbekiston Respublikasi Prezidenti **Sh.M.Mirziyoyev**



Favqulotda vaziyatlar vazirligi tizimini isloh qilish haqidagi farmonni 2.06.2017 yili imzoladi. Mazkur farmonda favqulotda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish tizimi samaradorligini oshirish, kadrlar salohiyatini mustahkamlash, zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalari, ilm-fan va texnik yutuqlarni joriy etish, shuningdek, favqulotda vaziyatlar vazirligining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash koʻzda tutilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

**Asos:** Maʼruzalar mavzuviy kechalar, nazariy konferensiyalar, mehnat va urush faxriylari bilan uchrashuvlar, nafaqadagi harbiy faxhiylari, xalqimizning mehnat va jangovar shart-sharoiti joylariga uyushtirilgan sayohatlar, paxodlar, muzeylarga tashriflarning barchasi yoshlar ongida ona - Vatanimizga sadoqat, fidoiylilik, yoshlarimiz Vatan uchun harbiy xizmatlarini qilish, vatanga va harbiy xizmatga muhabbat, har xil holatlarga doim tayyor boʻlish, vatan himoyasiga doim tayyor turishga tayyorlash zarurdir. Buyuk siymolarimiz malika Toʻmaris, choʻpon Shiroq, Spitamen, Muqanna, sohibqiron A.Temur, J.Manguberdi, Najmiddin Kubro, mirzo Ulugʻbek, Z. M.Bobur, Zebo Gʻaniyeva, general S.Raximovlar butun dunyoda vatan va tinchlik himoyachilari sifatida eʼzozlanadi.

Bu buyuk shaxslarimizni chuqur hayoti va faoliyatini yosh avlod oʻrgansa oʻz qahramoniga oʻxshahsni, undan ibrat olish ularning qahramonliklarini oʻrganib gʻurur va faxr tuygʻusi shakllanadi. Kino, teatr, radio, tasviriy sanʼat, muzeylarga sayyohat, vatanga bagʻishlangan plakatlar, xalqning maʼnaviy ruhini koʻtaradi. Vatan uchun eng qiyin damlarda ruhan tushmaslik, jasurlik, sadoqatlik va oxirgi tomchi qoni qolganicha ona yerimizning har bir qarichini himoya qilishga undaydi. Oʻz qasamyodiga, bayrogʻiga, quroldosh doʻstlariga sodiqlik, gʻalaba uchun jonini ayamalik kabi fazilatlar asosida tarbiyalanadi. Tarbiyaning turli shakllaridan foydalanilsa maqsadga erishiladi, yaʼni konferensiyalar, oʻqib chiqilgan kitoblarini muhokama qilish, kitob mualliflari bilan uchrashuvlar koʻproq oʻtkazilsa har bir kelajak yosh avlodga tarbiyaviy tomonlari borligini bilish mumkin.

**Yosh vatanparvarlarimiz;** Bir millatni ikkinchi millatdan ustun qoʻymasligi, siyosiy masalalarda urushni va toʻntarishni targʻib qilmasligi, zoʻrovonlik qilmaslik, esketemizm va terorizimga qarshi tura olishlik boʻyicha yosh bilimlarini oshiradilar.

**Muhokama:** Harbiy vatanparvatlik ruhida tarbiyalashda quydagilarga eʼtabor qaratish zarur;

- Favqulotda holatlarga doim shay turish.
- Harbiy vatanparvarlik mavzusida suhbatlar va maʼruzalar tashkil etish.
- Ulugʻ vatan urushi qatnashchilarini taklif qilib, yoki uyiga tashrif buyurib jonli suhbatlar qilish.
- Tarixiy joylarga paxodlar uyushtirish.
- Nafaqadagi faxriylar general, polkovnik, mayyorlar ish tajribalari bilan suhbatlar qilish.

## Har bir fuqaroning burchi :

- Harbiy xizmat.
- O`zbekiston Respublikasi qonunlariga bo`ysunish.
- Soliq to`llash.
- Atrof - muhit tozaligi.
- Madaniy tarixiy yodgorliklarni asrash.

Buyuk el , buyuk xalq , buyuk insonlarni yaratadi. Ogoh etuvchi saqlab turuvchi omil bo`lishi lozim ; chunonchi , xalq millat taqdiriga daxldor masalalarda pala-partish , oqibatni o`ylamasdan ish yuritish yaramaydi. Yaqin o`tmishimizning yana bir sabog`i shuki , millat , davlat , jamiyat taqdiri hal bo`layotgan pallada o`zligimizni anglash , ma`naviyat ildizlarimizni unutmasligimiz katta ahamiyatga ega.

Ozod va obod Vatan , erkin va farovon hayot , yurt tinchligi oliy maqsadimiz bizning bosh g`oyamizdir. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti **Sh.M.Mirziyoyev** ta`kidlaganidek; “ ... islohatlarimizning barchasi ulug` va yagona bir maqsadga qaratilgan . U ham bo`lsa xalqimizning tinchligini asrash aholi farovonligini oshirish , farzandlarimiz sog`lom va barkamol etib tarbiyalashdan iboratdir”.

Favqulotda holatlarda to`g`ri va tezkor qaror qabul qila oladigan , yuksak axloqiy va ma`naviyatli fazilatlariga ega , o`zini hamda yon- atrofdagilarni turli tusdagi favqulotda vaziyatlarning zararli ta`siridan himoya qila oladigan barkamol avlodni voyaga yetkazish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir. O`zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov shunday degan edi ; “ O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida : xavfsizlikga tahdid , barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari nomli kitobida tabiatga yetkazilgan ozor va uning sababi haqida shunday yozgan , hozirgi vaqtda jahon fan-texnika taraqqiyoti jadal rivojlanishi munosabati bilan tabiiy zahiralardan xo`jalik maqsadlarida tobora ko`proq foydalanilmoqda . Buning ustiga , dunyo aholisi yildan-yilga o`sib borib , ko`proq miqdorda oziq-ovqat , yoqilg`i , kiyim-kechak va boshqa narsalarni ishlab chiqarish talab qilinmoqda . Bu esa o`rmonlar egallab turgan maydonlarning jadal suratlarda qisqarishiga , cho`l –saxrolarning bostirib kelishiga , tuproqning buzilishiga , atmosferaning Ozon to`sig`i kamayib ketishiga , yer havosining o`rtacha harorati ortib borishiga va boshqa holatlarga sabab bo`lmoqda”.

Demaki , davlatimiz va xalqimiz har qanday favqulotdagi holatlarga tayyot turishi lozim.

**Xulosa :** Insonlar bo`ladiki , davlatning taqdirida mislsiz o`rin tutadi. Dahosi zukkosi va salohiyati bilan jahonshumul ahamiyat kasb etadi. Dunyoga tanilgan , tarixlardan manguga joy oladigan , buyuklik kasb etgan insonlar bo`ladi. Jahonshumul fotixlar , ulug` sulolalar va saltanat asos solgan hukmdorlar shaxsiyati , oilaviy madaniyati , farzandlari bosib o`tgan yo`llari , o`g`itlari kelajak yoshlarga namuna bo`ladi. Uzoq asrlar davomida sayqal topgan milliy mentalitet , urf-odatlar , udumlar bag`rida yetilganligi , ravnaq topganligi sohibqiron A.Temur tamal toshini qo`ygan toju-taxt vorislari hayot yo`li misolida keng ko`lamda tadqiq etiladi. O`zbekiston Respublikasi mustaqillikga erishganidan so`ng haqqoniy tariximizni o`rganish uchun keng imkoniyatlar eshigi ochildi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi . 2023.

**Mirziyoyev Sh.M.** “ Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz ” . T. O`zbekiston . 2018.

**Mirziyoyev Sh.M.** “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir “ . T. O`zbekiston . 2018 .

**Mirziyoyev Sh.M.** “ Yoshlarga donolar o`giti ” . T. O`zbekiston . 2019.

**Mirziyoyev Sh.M.** “ Qarisi bor uying parisi bor “ T. O`zbekiston . 2019.

**Mirziyoyev Sh.M.** “ Niyati ulug` xalqning ishi ham ulug` , hayoti yorug` va kelajagi farovon bo`ladi “ . 3-tom. T. O`zbekiston . 2020 .

**Karimov I.A.** “O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yo`li “ .T. O`zbekiston . 1992.

**Karimov I.A.** “ Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir “ .T. O`zbekiston . 1996.

**Karimov I.A.** “ Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori “ .T. O`zbekiston . 1997.

**Karimov I.A.** “ Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q “ .T. Sharq . 1998.

**Karimov I.A.** “ O`zbekiston buyuk kelajak sari “ T. O`zbekiston . 1999 .

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “ O`zbekiston Respublikasi Favqulotda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to`g`risida” gi Farmoni . 04.03. 1996.

O`zbekiston Respublikasining “ Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to`g`risida” gi Qonuni . 20.09.2008.

O`zbekiston Respublikasining “ Fuqaro muhofazasi to`g`risida”gi Qonuni .20.05.2000.

**Z.Ilyosova .** “ Hayot xavfsizligi asoslari “ T. Moliya . 2001.

